

Keldiyorova Eleonora Mahmud qizi

O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli adib, yirik davlar arbobi, kuchli siyosatchi hamda adabiyotshunos Sharof Rashidovning shonli hayoti, mamlakat hamda xalq farovonligi va tinchligi yo`lidagi og`ir mehnatlari haqida bayon etilgan.*

Kalit so`zlar: *Jurnalist, O`zbekiston Oliy Soveti, industrial agrar respublikaga, eksport, teatr va san`at, "Karib tangligi", "paxta ishi", "rashidovchilik".*

Аннотация: В данной статье описывается славная жизнь известного писателя, великого деятеля своего времени, сильного политика и литератора Шарофа Рашидова, его нелегкий труд во имя благополучия и мира страны и народа.

Ключевые слова: журналист, Верховный Совет Узбекистана, индустриально-аграрная республика, экспорт, театр и искусство, «Карибский конфликт», «хлопковое дело».

Annotation: *This article describes the glorious life of the famous writer, great historical figure, strong politician and literary critic Sharof Rashidov, his hard work for the well-being and peace of the country and the people.*

Key words: *Journalist, Supreme Soviet of Uzbekistan, industrial agrarian republic, export, theater and art, "Caribbean conflict", "cotton work".*

Taniqli adib, yirik davlar arbobi Sharof Rashidov Jizzax shahrida dehqon oиласида dunyoga kelgan. Dastlab o`qituvchilik, jurnalistik bilan shug`ullanib, adabiyotning serqirra ijodkori sifatida faoliyat yuritadi. Shu yillarda O`zbekiston KP Samarqand viloyati komitet kotibi, "Qizil O`zbekiston" gazeta muharriri, O`zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi boshqaruvi raisi, O`zbekiston Oliy Soveti Preadiumi raisi kabi lavozimlarda ishlab xalqning mehrini, e'tiborini qozonib chorak ast davomida Respublika prezidenti bo'lib, xalqning mehrini qozonadi va o'z ortidan ergashtiradi.

Bu inson butun umrini shu xalq manfaati, yurt farovonligi uchun sarfladi va o'z vijdoniga sodiq qolib mehnat qildi. Har qanday sharoitda yurtdoshlari bilan yelkama yelka dushmanlarga qarshi kurashdi. Na o'zi, na xalqning nomiga gard yuqtirmadi Sharof Rashidov o'sha davrda o'zining darajasidagi boshqa barcha rahbarlar qatori O`zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo'lman. Bunday imkoniyat KPSS va markaziy ministrliklar qo'lida bo'lган. Mana shunday sharoitda O`zbekiston xomashyo yetkazib beruvchi bir mintaqa, hatto eng oddiy masalalarni markazning ixtiyorisiz hal etish qobiliyatiga ega bo'lman o'lka edi. Lekin, shunday sharoitda ham Sharof Rashidov o'zining mohir siyosatchi ekanligini ko'rsata bilgan. U har qanday yo'l bilan bo'lmasin, Markazning ishonchini qozonishga, kuchli byurokratik tizim changalidan O`zbekistonning ulushini ajratib olishga muvaffaq

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

bo`lgan. Buning natijasida o`z xalqini manfaatlari foydasiga talay ijobiy o`zgarish qilishga erishdi. O`zbekiston, tom ma'nodagi agrar respublika darajasidan industrial agrar respublikaga aylandi.

O`zbekistonda qo`riq yarlarni o`zlashtirish ko`lam jihatidan misli ko'rilmagan buniyodkorlik ishlarining amalga oshiradi, O`zbekistonning sanoat salohiyatini oshirishga, O`zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarini chet mamlakatlarga eksport qilishga, ijtimoiy sohalari qo'llab quvvatlashga, moliyaviy tarafdan doim muhtojlarga ko'maklashishga harakat qilgan bundayin xalqparvar inson, doim elim deb, yurtim deb yashaydi. Har qanday ish ortidan shu xalqqa foya kelishi mumkin bo`lgan tomonlarini o`rganib ish yuritadi.

Har bir davming o`z qahramoni bo'ladi. Sharof Rashidov ham shundayin qahramon shaxs bo`lgan desak, u insonga munosib nom bergan bo'lardik. Hech bir soha uning nazaridan chetda qolmagan va shu sabab ham bundayin chin xalq dilbandi bo`lgan insonning hayotini, faoliyatini o`rganish va tadqiq qilish har bir inson uchun cheksiz mammuniyat bag'ishlaydi.

Elning koriga yarab, og'irini yingil qilishdek ezgu ishga rahnamolik qilgan bu shaxsga Islom Karimov o`zining "Xalqimizning otashqalb farzandi" nomli kitobida shunday so'zlarni keltiradi:"Bu murakkab shaxs bir tarafdan, milliy manfaatlarni o`ylashga; ikkinchi tarafdan, markazdan kelgan tub manfaatlarga zid buyruqlarni hayotga tatbiq etishga majbur bo`lganini unutmasligimiz zarur. Uning umri sandon bilan bolg'a o`rtasida qo'yilgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi".

Xalqimiz Sharof Rashidovning poytaxtimiz Toshkent shahrining bugungi salohiyati va zomonaviy qiyofasini yaratishda beqiyos xizmatlari singganini yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi. 1996-yil zilzila oqibatida vayron bo`lgan turar-joylar, ma'muriy binolar, korxonalami tiklash, boshpanasiz qolgan va yana uzoq o'lkalardan ko'chib kelgan odamlarni uy-joy bilan ta'minlashning o`zi bo'lмаган. Bugun poytaxtimizdagi metropolitan xizmatidan foydalanayotgan, teatrler-u muzeylelar, san'at saroylari yo sayilgohlarda bo`lgan har bir inson Sharof Rashidovning porloq xotirasi oldida hurmat bajo etadi.

Sharof Rashorov rahbarligi davrida ko'plab sanoat korxonalari, yirik inshootlar buniyod etildi. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon- Sherobod cho'llarining o`zlashtirishida uining xizmatlari beqiyos, shu bilan birligida Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangiyer va Guliston kabi shaharlaning buniyod etilishi, barcha sharoitlami o`zida mujassam etgan bino va uylarning qurilishga ham shu inson tomonidan tashabbus ko'rsatilishi, ko'ksimizdagi faxr tuyg'usini yanada ko'klarga ko'taradi.

Chindan ham, bu insondagi iroda, mardlik, xalqparvarli va samimiyy munosabatlami o`zida mujassam etgan so'zamollik nafaqat boshqaruvdagagi, balki diplomatik aloqalarni mustahkamlash, jumladan ularga asos solishdagi peshqadamlikni qo`lga kiritishiga sabab bo`lgan. U doim dadil o`z fikrlarini ayta olish qobiliyatiga ega bo`lgan va hattoki 1996-yil Toshkentda Hindiston va Pokiston o`rtasidagi mojaroni

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

to'xtatish bo'yicha qabul qilinggan tarixiy bitimga erishishda o'zining munosib hissasini qo'shganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, U AQSH va SSSR o'rtasida yadro urushiga olib kelishiga bir banya qolgan "Karib tangligi" muommasini bartaraf etishda, Kuba rahbarlari bilan muzokara olib borishda foal qatnashgan.

Gap shundaki, kashmirliklaming milliy asorat, zulm, diniy mahdudlik tutqunligiga qarshi sabot bilan olib borgan kurashini tamomila boshqa janrda, bo'lak uslubda yoritish ham mumkin edi. Biroq Sharof Rashidov faqat adib sifatida emas, balki o'z davrining davlat va jamoat arbobi, taniqli diplomat sifatida ham, mintaqadagi ahvol va siyosiy vaziyatni bag'oyat nozik his etgani holda, hamda, eng muhimi, o'z uslubi, ta'b-didiga to'la mos ravishda shunday antiqa tadbir, badiiy tasvir vositalarini topib qo'llaganki, natijada voqealar yalang'och holda, quruq "nasriy" yo'lda emas, balki majoziy timsollar yordamida tabiat kuchlarini jonlantirgan, tashbehli tasviri bo'rttirgan va lirk tuyg'ular pardalarini tarang sozlagan holda, muallif o'z qo'shig'ini shunday maqomga solganki, bunda xalqning erk, ozodlik sari intilishi, g'alamis kuchlarga qarshi kurash tuyg'usi baralla ifodalangan.

Afsuski, sobiq totalitar tuzum davrida Sharof Rashidov nomi oyoqosti qilindi, unga tuhmat toshlarini otib, uning hayotini ham, ijodini ham o'rganish ta'qiqlab qo'yildi. Sovet davlatining so'nggi yillarida ruslar uchun sharof Rashidov nomi korrupsiya va Sovet Ittifoqining ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvining bosh timsoliga aylanib qoldi. "rashidovchilik" atamasi paydo bo'ldi, "paxta ishi" degan quruq tuhmatlar bilan minglab insonlar qamalib, nomlari qora bo'yoqlar bilan yoziladigan bo'ldi.

Mustaqillikka erishgach, yurtboshimiz tashabbusi bilan jamiyatning barcha sohalariga e'tibor qaratilish, xalqning ma'naviy va moddiy merosini asrab

avaylashga, ajdodlar xotirasini tiklashga va boy madaniyatimizning so'nmas qadriyatlarini yanada ulug'lashga bel bog'landi. Tarixiy xotirani tiklash maqsadida, tarix qaytadan ko'rib chiqildi, mavjud tuzumning qaqshatqich zarba va qiyonoqlariga duchor bo'lган begunoh vatandoshlarimiz qatorida, yurtning orashqalb farzandi Sharof Rashidovning pok nomlari ham oqlandi va ijodini erkin o`rganishga imkoniyatlar yaratib berildi.

Joriy yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Atoqli davlat arbobi vayozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorining imzolanishi orqali, bu shaxsning yorqin xotirasi ulug'lanib, abadiylashtirilishi maqsad qilinganligi esa bizyoshlar uchun quvonarli hol. Shuningdek, yosh avlodni Sharof Rashidovning hayoti bilan yaqindan tanishtirish maqsadida, Jizzax shahrida uning uy -muzeysi tashkil etish va muzey hududini obodonlashtirish ishlari amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, bu inson nomining jizzax shahriga berilishi ham serqirra ijodkor va davlat arbobiga qaratilgan yuksak e'tiborning namunasi deb hisoblasak adashmagan bo'lamiz.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. “Xalqimizning otashqalb farzandi”. T.:O`zbekiston, 1992
15-bet.
2. Uza.uz “Yurtga sadoqat bilan xizmat qilgan inson” Mamatqul Hazratqulov. 06.05.2017
3. As-Salom, G`aybulloh. Ezgulikka chog`lan, odamzod. T.: “Sharq”, 1997 42-bet